O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasidagi adabiy aloqalar uzoq tarixga ega

Alisher Navoiy nomidagi Xalqaro jamoat fondi ijrochi direktori Olimjon Davlatov Tojikiston Respublikasining O’zbekiston Respublikasidagi Favqulodda va muxtor elchisi, akademik Abdujabbor Rahmonzoda bilan uchrashdi.

Uchrashuvda Tojikiston Respublikasining Favqulodda va muxtor elchisi, akademik Abdujabbor Rahmonzoda O’zbekiston va Tojikiston ilmiy aloqalari uzoq asrlarga borib taqalishi, ayniqsa, Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiyning adabiy hamkorligi, ustoz-shogird munosabatlari, ilmiy masladkoshligi bu borada o’rnak bo’lishini alohida ta’kidladi.

O’z navbatida, Fond ijrochi direktori Olimjon Davlatov ilm-fan tarixida birinchi navoiyshunos Abdurahmon Jomiy bo’lsa, birinchi jomiyshunos Alisher Navoiy ekanligi va bu an’ana bugungi kunga qadar davom etib kelayotgani haqida gapirdi.

Uchrashuv davomida Alisher Navoiyning Tojikistonda saqlanayotgan qo’lyozma asarlari nusxalarini O’zbekistonga olib kelish, shuningdek, Navoiyning “Xamsa”sini tojik tarjima qilish va nashr etish, o’zbek va tojik olimlari ishtirokida konferentsiya o’tkazish masalalari muhokoma qilindi.